

## OROGRAPHIC STRUCTURE AND GEOMORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE SOUTHWESTERN HISOR MOUNTAIN AND FOOTHILL REGIONS

*Ruslan Allayorov*

*Associate Professor, Department of Ecology and Environmental Protection  
Karshi State Technical University*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences  
Karshi, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Southwestern Gissar, orographic structure, geomorphology, mountain landscapes, foothill regions, relief, tectonic processes, erosion, denudation, proluvial deposits, geocology.

**Received:** 05.05.26

**Accepted:** 06.05.26

**Published:** 07.05.26

**Abstract:** This article presents a comprehensive geographical analysis of the orographic structure and geomorphological characteristics of the Southwestern Hisor mountain and foothill regions based on an integrated geographical approach. The study examines the geographical location of the area, the spatial distribution of mountain ranges and foothill plains, altitudinal differentiation and their formation, as well as the morphometric parameters of the mountain ranges belonging to the Southwestern Hisor system, including watersheds, valleys, and the interrelation of foothill relief forms. In addition, the research investigates the influence of tectonic movements, lithological composition, and exogenous geomorphological processes on the formation of the region's relief. The role of erosion, denudation, proluvial and deluvial processes in shaping the present landscape is analyzed, along with the formation features of alluvial fan-shaped deposits in the foothill areas.

## JANUBI-G'ARBIY HISOR TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARINING OROGRAFIK TUZILISHI HAMDA GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ruslan Allayorov*

*Qarshi davlat texnika universiteti*

*Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d.(PhD)*

*Qarshi, Uzbekistan*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Janubi-gʻarbiy Hisor, orografik tuzilish, geomorfologiya, togʻ landshaftlari, togʻoldi hududlar, relyef, tektonik jarayonlar, eroziya, denudatsiya, prolyuvial yotqiziqlar, geokologiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Janubi-gʻarbiy Hisor togʻ va togʻoldi hududlarining orografik tuzilishi hamda geomorfologik xususiyatlari kompleks geografik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning geografik oʻrni, togʻ tizmalari va togʻoldi tekisliklarining hududiy joylashuvi, balandlik boʻyicha differensiallanishi hamda ularning shakllanishi, Janubi-gʻarbiy Hisor tarkibiga kiruvchi togʻ tizmalarining morfometrik koʻrsatkichlari, suvayirgʻichlari, vodiylari va togʻoldi relyef shakllarining oʻzaro bogʻliqligi oʻrganilgan. Shuningdek, hudud relyefining shakllanishida tektonik harakatlar, litologik tarkib va ekzogen geomorfologik jarayonlarning taʼsiri, eroziya, denudatsiya, prolyuvial va delyuvial jarayonlarning landshaftlarning hozirgi qiyofasini shakllantirishdagi roli hamda togʻoldi hududlarida konussimon yoyilmalarning hosil boʻlish xususiyatlari tahlil etilgan.

---

## МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ STEAM-ПОДХОДА

**Руслан Аллаёров**

*Исполняющий обязанности доцента кафедры экологии и охраны окружающей среды  
Каршинский государственный технический университет  
Доктор философии (PhD) по географическим наукам  
Карши, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Юго-Западный Гиссар, орографическое строение, геоморфология, горные ландшафты, предгорные территории, рельеф, тектонические процессы, эрозия, денудация, пролювиальные отложения, геоэкология.

**Аннотация:** В данной статье на основе комплексного географического подхода проанализированы орографическое строение и геоморфологические особенности юго-западных горных и предгорных районов Гиссарского хребта. В исследовании рассмотрены географическое положение территории, пространственное размещение горных хребтов и предгорных равнин, их высотная дифференциация и процессы формирования, а также морфометрические показатели горных хребтов, входящих в состав Юго-Западного Гиссара. Особое внимание уделено взаимосвязи водоразделов, долин и форм рельефа предгорных территорий.

Кроме того, исследовано влияние тектонических движений, литологического состава и экзогенных геоморфологических процессов на формирование рельефа

региона. Проанализирована роль эрозии, денудации, пролювиальных и делювиальных процессов в формировании современного облика ландшафтов, а также особенности образования конусов выноса в предгорных районах.

---

**Kirish.** Hisor tizmasi Pomir-Oloy tog' tizimining eng yirik tog'laridan biri hisoblanadi. U Mastchoh tog' tugunidan avval g'arbga so'ngra janubi-g'arbga yo'nalib, tarmoqlari janubda Amudaryo o'zanigacha davom etadi. Hisor tog' tizmasi Qashqadaryo, Surxon-Sherobod va Hisor vodiylari oralig'idagi antiklinaldir.

Ko'pchilik geologlar va ba'zi bir geograflar (L.S.Berg, E.M.Murzayev) Pomirning shimolida joylashgan Hisor-Oloy tog' tizmasini Janubiy Tyanshanga kiritadilar [3; 354-b.]. Hisor-Oloy tog' tizmasining geologik taraqqiyoti Tyanshan (xususan G'arbiy Tyanshan) bilan yaqin bo'lsada, boshqa geografik omillar – iqlimiy, geobotanik xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi.

Hisor tizmasi Qashqadaryoning boshlanish qismidan o'z yo'nalishini butunlay janubi-g'arb tomon o'zgartiradi va bir qancha tog' tizmalariga bo'linib ketadi [3; 404-b.]. Ushbu nuqta 39o sh.k. va 68o shq.u. ga to'g'ri keladi. Uning shu yo'nalishdagi uzunligi 200 km dan ortiq.

Janubi-g'arbiy Hisor shimolda 39o 10' sh.k. dan janubda 37o 30' sh.k. gacha, g'arbda 65o 50' shq.uz. dan sharqda 68o 04' shq.uz. gacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan hudud janubi-g'arbda Turkmaniston, shimoli-sharqda Tojikiston Respublikalari hamda g'arbda Kitob-Shahrisabz, sharqda Surxondaryo botiqlari bilan chegaralanadi [1; 12-b.].

P.Baratov (1996) Hisor tizmasi taxminan 68o sharqiy uzunlikda Kishtut daryosining yuqori oqimi orqali ikki qismga ajralishini yozadi: 1) janubi-g'arbga tomon yo'nalgan va Kishtut hamda Qoratog' daryolari orasida suvayirg'ich hisoblanadigan Machitli tog'i; 2) shimoli-g'arbga tomon chegara bo'ylab yo'nalgan qismi – Hazrati Sulton tog'i Hisor tizmasining bevosita davomidir [2; 235 – 236-b.].


**Tadqiqot materiallari va usullari.** Maqolada tarixiy-geografik, qiyosiy-geografik, geomorfologik tahlil, orografik tahlil, kartografik hamda geotizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Hududning geografik o'rni, orografik tuzilishi va relyef xususiyatlari mavjud ilmiy adabiyotlar, topografik va tematik xaritalar asosida o'rganildi. Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududlarining geomorfologik tuzilishi, tog' tizmalari va vodiylarining hududiy joylashuvi hamda ularning shakllanish qonuniyatlari qiyosiy-geografik va geomorfologik tahlil metodlari yordamida baholandi. Olingan natijalar kartografik materiallar bilan taqqoslanib, hududning orografik va geomorfologik xususiyatlari geotizimli yondashuv asosida umumlashtirildi.

**Natijalar va muhokama.** Zarafshon va Hisor tizmalarini tutashtirib turuvchi tizma Sumsar-Sherotog' tog'lari nomi bilan kenglik bo'ylab cho'zilgan. Ushbu tog'lar Hisorning shimoli-g'arbiy

tizmalari sifatida qaraladi. Shu boisdan adabiyotlarda G‘arbiy Hisor yoki Shimoli-g‘arbiy Hisor tarmoqlari sifatida talqin qilinadi. Sumsar-Shertog‘ tog‘lari shimolda Jinnidaryo, janub va janubi-sharqda Oqsuv daryolari oralig‘ida joylashgan. Tog‘larni bir-biridan Oqsuvning o‘ng irmog‘i Qorasuv daryosi ajratadi. Eng baland joyi 2262 m. Tizmalarda Birdak, Sangtor kabi dovonlar mavjud bo‘lib, ular Oqsuv, Jinnidaryo, Qashqadaryo vodiylarini bir-biri bilan bog‘laydi. Ushbu tog‘larning janubida Kitob-Shahrisabz botig‘i joylashgan.

Kitob-Shahrisabz botig‘i paleozoyning oxirida shakllana boshlagan, bir tomonlama ochiq bo‘lgan botiqlarga mansub bo‘lib, relyefi sinklinalni hosil qiladi. Botiqning hozirgi qiyofasi doimiy va davriy oqimga ega bo‘lgan daryolar, soylar tog‘lardan olib kelgan dag‘al va mayda qumoq jinslar bilan to‘ldirilgan. Botiqning relyefi tog‘oldi tekisliklar, qayir va qayir usti terrasalari hamda adirlar tufayli ancha murakkab xususiyatga ega. Kitob-Shahrisabz botig‘i iqlim xaritalarida subtropik mintaqaning quruq cho‘l zonasiga kiritiladi [7;162-b.]. Kitob-Shahrisabz botig‘ining sharqida Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlari joylashgan.

Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy qismi shu yo‘nalishda Xontaxti, Yakkabog‘, Chaqchar, Jonikamar, Beshnov, Qorasirt, Qorachag‘at, Dehqonobod, Bogazar, Boysuntog‘, Ketmonchopti, Ko‘hitang, Surxontog‘, Suvsiztog‘ kabi bir necha tizmalarga bo‘linib ketgan (1-rasm).



1-rasm. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi hududlarining orografik tuzilishi karta-sxemasi.

Hazrati Sulton tog' massividan janubi-g'arbda Osmontarosh, Beshnov, Eshakmaydon, Xontaxti, Toytalash, Kurek, Maydanak tog'lari umumiy nom bilan Yakkabog' tog'lari deb yuritiladi. Osmontarosh tog'lari yuqori paleozoyda qotgan intruziv magmatik jinslardan tuzilgan. Yemirilishga nomoyil aksariyat kristalli bu jinslar relyefida o'tkir qirrali tog' qoyalari tarzida namoyon bo'ladi. Granit, granitdiorit, qumtosh va boshqa tog' jinslari bu qoya toshlarning o'zagini tashkil etadi. Yonbag'rida muzlik va doimiy qorlar mavjud bo'lgan Osmontarosh tog'larining shimoliy tarmoqlarini Oqsuvning Tamshush va Suvtushar irmoqlari parchalagan. Osmontarosh tog'larining janubdagi davomi Beshnov tog'laridir. Har ikkala tog'larning ham balandligi 3700 m gacha yetadi.

Beshnov janub va g'arbda Qizildaryo, sharqda Tanxozdaryo oralig'ida joylashgan. Uzunligi qariyb 28-30 km. Eng baland joyi 3446 m (Churchiq tog'i) [5; 6-b.]. Suvayirg'ich qismining balandligi 2600-3000 m. Shimoliy yonbag'ri ancha tik va soylar bilan o'yilgan, janubi esa Qizildaryo (Yakkabog'daryo) vodiysiga asta-sekin pasayib boradi va nisbatan kamroq o'yilgan.

Tanxoz va Qizildaryo daryolarining oralig'ida kenglik bo'lib cho'zilgan Beshnov tog'lari kembriydan oldingi va quyi paleozoy metamorfik slanes va giltoshlarning qatlamlaridan tuzilgan bo'lib, bu yerda Arratosh, Maskara, Chakmonquydi kabi o'tkir qirrali qoyali cho'qqilarning balandligi 2800-3200 m bo'lgan platosimon tog'lardan ko'tarilib turibdi.

Beshnovning janubi-g'arbida Ko'ktepa tog'lari joylashgan. U shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa cho'zilgan bo'lib, shimoli-sharqidan Tanxozdaryo va janubi-g'arbdan Qizildaryo oqib o'tadi. Eng baland joyi 1444 m (Ko'kbuloq cho'qqisi), uzunligi 8-10 km, shakli gumbazsimon.

Xontaxti tizmasi janub va janubi-g'arbda Katta O'radaryo, shimol, shimoli-sharq va sharqqa 60 km dan ziyod masofaga cho'zilgan. O'rtacha balandligi 1500-2500 m, eng baland joyi 2938 m. Xontaxti tizmasining suvayirg'ich qismi tekislangan yuzalardan iborat. Janubiy va sharqiy yonbag'irlari Katta O'radaryo o'zanidan tik ko'tarilgan, shimoli-g'arbiy yonbag'ri esa biroz nishab. Etagida adirlar bilan tutashib ketgan va ko'plab daryolar (Langar, Katta O'radaryoning chap irmoqlari) bilan zich va chuqur kesilgan. Ushbu tizmaning janubi-g'arbida Ko'ngo'zlik tog'lari joylashgan bo'lib, uning eng baland joyi 2446 m, janubida 2260 m (Kurek tog'i) ga yetadi.

Tizma Gul dara soyi o'zanidan boshlanib Langarsoyning shimoli-sharqqa tomon yo'nalgan irmog'igacha davom etadi, uzunligi 16-18 km. Ko'ngo'zlik tog'larining janubi-g'arbiy yonbag'ri ancha keng va Langarsoy, Oqsuv, Qizildaryo irmoqlari bilan parchalangan. Ko'ngo'zlik tog'lari shimoli-sharqdagi Xontaxti tizma tog'lari bilan birgalikda yagona tog' tugunini hosil qilgan. Bu tog'lar yura va bo'r davrlarining cho'kindi jinslaridan tuzilgan.

Chaqchar tog'lari Yakkabog'daryo va Katta O'radaryoning yuqori oqimida joylashgan bo'lib, uning balandligi 3500 m dan yuqori bo'lgan Xo'ja Aychaburun cho'qqisi mezozoy ohaktoshlaridan tarkib topgan. Bu tog'larning etaklarida tosh qotgan marjon poliqlari qatlamlari

mavjud. Qalinligi 200 m gacha yetadigan ohaktoshlar Yakkabog‘daryo havzasida juda keng tarqalgan. Xususan, Yakkabog‘daryoning chap irmog‘i Qal‘asoy-Qal‘ayi Sheron daryosi bu jinslarni yemirib, eritib juda chuqur dara hosil qilgan. Xo‘ja Axchaburun (3700 m) tog‘i yonbag‘rini tik kesib o‘tgan. Qal‘ayi Sheron (Sherlar qal‘asi) tangisining tik devorlari 200 m, ba‘zan undan ham ortiq balandlikka ega. Xuddi shu yerda respublikadagi eng uzun (815 m) karst g‘orlaridan biri Amir Temur g‘ori shakllangan.

Chaqchar tog‘ining janubi-g‘arbiy qismi va Qorasirt tog‘ining shimoli-sharqiy qismida meridional yo‘nalishda Sariqiya tizmasi joylashgan. G‘uzordaryoning irmoqlari Katta O‘radaryo va Kichik O‘radaryo oralig‘ida Qorasirt tizmasi joylashgan bo‘lib, u shimoli-sharqdan janubi-g‘arbgacha qariyb 40 km ga cho‘zilgan. O‘rtacha balandligi 1500-2000 m, eng baland joyi 2886 m. Suvayirg‘ich qismi va yonbag‘irlarida tekis yuzalar uchraydi, yonbag‘irlari chuqur, darasimon soy o‘zanlari bilan kesilgan.

Qorasirt tizmasining janubida Bogazar tog‘i joylashgan bo‘lib, uning eng baland joyi – Chovurtqali cho‘qqisi (2098 m), uzunligi 10-12 km [5; 93-b.]. Bogazar tog‘i shimoli-sharqdan janubi-g‘arbgacha yo‘nalgan bo‘lib, janubi-sharqiy yonbag‘irlari Kichik O‘radaryo vodiysiga ancha qiyga, ba‘zi joylarda tik, shimoli-g‘arbiy yonbag‘irlari esa yotiqroq joylashgan. Tog‘ yonbag‘irlaridagi buloqlardan boshlanuvchi soylar Kichik O‘radaryo tomon oqadi. Uning janubida Bobosurxok tizmasi joylashgan. Bobosurxokning eng baland joyi – 1790 m, o‘rtacha balandligi 1500-1600 m. Shimoli-sharqdan janubi-g‘arbgacha 9-10 km ga cho‘zilgan. Mezokaynozoy yotqiziqlari (ohaktosh, qumtosh, gipsli gil, mergel, konglomeratlar va b.) bilan qoplangan. Janubiy yonbag‘ri nisbatan tik, karst shakllari (chuqurlar, g‘orlar) rivojlangan. Bobosurxokning janubida Dehqonobod past tog‘lari joylashgan. Dehqonobod past tog‘lari shimoli-sharqda Kichik O‘radaryoning o‘rta oqimidan janubi-g‘arbda O‘zbekiston bilan Turkmaniston Respublikalarining chegarasidan o‘tuvchi daryo o‘zanigacha davom etadi. Janubi-sharqda Seypitog‘, Ellikbosh, Jonikmar tizmalari, shimoli-g‘arbda Itbaxmastbel tizmasi bilan tutashgan, balandligi 700-1100 m [6; 276-b.]. Dehqonobod past tog‘lari tarkibidagi tizmalardan biri Itbaxmastbel tizmasi bo‘lib, uning eng baland joyi 1040 m, uzunligi 14 km ga teng. Itbaxmastbel tizmasining janubi-sharqiy yonbag‘irlari ancha tik.

Kichik O‘radaryo vodiysining janubi-g‘arbida o‘rtacha balandlikdagi Oqboshtog‘ joylashgan. Uning eng baland joyi 2172 m ga yetadi.

Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida, Ko‘hitang tizmasining shimoli-g‘arbiy chekkasida Yasin (Yosin) tizmasi joylashgan. Uning eng baland joyi 1401 m, tizma janubi-g‘arbgacha tomon (1100 m) pasayib boradi, uzunligi 18 km [6; 491-b.]. Yosin tizmasining janubi-sharqiy yonbag‘ri juda tik. Uning janubi-g‘arbida Jonikmar tog‘i joylashgan bo‘lib, eng baland joyi 1319 metr, uzunligi esa 14 km. Shimoldan janub va janubi-g‘arbgacha yo‘nalgan. Jonikmar tog‘ining shimoli-

g'arbiy yonbag'irlari quruq soy va jarlar bilan o'yilgan bo'lib, zinapoyasimon pasayib Arabdasht va Quyuqdasht tekisliklariga tutashib ketgan.

Surxondaryo botig'ining shimoli-sharqida Dalma tizmasi joylashgan, uzunligi 10 km ga yaqin, o'rtacha balandligi 2500-2800 m, eng baland nuqtasi 3360 m. Tizma shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha cho'zilgan. Dalma tizmasidan janubroqda Gulikura tizmasi joylashgan bo'lib, uzunligi 8-9 km, o'rtacha balandligi 1400-1500 m, eng baland nuqtasi 2041 m. Janubi-g'arbiy yonbag'ri nisbatan tekisroq bo'lib, To'palangdaryo vodiysi tomon sekin-asta pasayib boradi. Shimoliy va shimoli-sharqiy yonbag'ri tik bo'lib, Zevarsoy qirg'oqlaridan tik ko'tarilgan. To'palangdaryoning irmog'i Kishtut havzasida Machitli tizmasi joylashgan. U Sho'robsoyning yuqori oqimidan (Daldolitepa tog'i, 1937 m) boshlanib Xo'ja Kiyikkalon tizmasi (4022 m) yaqinida sharqqa keskin burilib, Xo'ja Kiyik tizmasiga (4396 m) tutashib ketadi. Eng baland joyi 3478 m (Machitli tog'i).

Hisor tizmasining eng uzun tarmog'i Boysuntog' Sheroboddaryo bilan Surxondaryoning suvayirg'ichi hisoblanadi. Ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyatining asosan Boysun, qisman Sariosiyo tumanlari hududida joylashgan. Shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha 150 km ga cho'zilgan. Eng baland joyi – 4425 m (Xo'japiryax tog'i) [5; 117-b.]. Boysuntog'ning ayrim qismlari turli nomda ataladi: (shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha) Qushtang (3723 m), Ketmonchopti, Sarimas (1886 m), Suvsiztog' (2124 m). O'rtacha balandligi 2500-3000 m, Boysunda 3000 m dan baland Belovti (3712 m), Gaza (3018 m) nomli dovonlar mavjud.

Boysun tizmasining janubi-g'arbiy etaklarida Boysun soyligi joylashgan. Boysun soyligi shimolda Chag'il tog'lari, sharqda Sherobod-Sariqamish qirlari, janub va janubi-g'arbda baland tepaliklar va past tog'lar bilan o'ralgan, mutlaq balandligi 1200 m.

Surxondaryoning o'ng irmoqlari Xalqajar va To'palangdaryo vodiylari orasida Cho'lbayir (Surxontog') tog'lari joylashgan. Janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa 60 km dan ziyod masofaga cho'zilgan, balandligi 1500-2500 m. Eng baland joyi 3812 m. Yonbag'irlari asimmetrik tuzilishga ega, janubi-sharqiy yonbag'irlari ancha tik (1500 m gacha), ko'plab daryo tarmoqlari bilan kesilgan.

Boysun tog'larining janubi-g'arbiy qismida Ketmonchopti tog'lari joylashgan bo'lib, uning eng baland joyi 3159 m. Ketmonchopti tog'lari janubi-g'arbda Sherobod daryosi va shimoli-sharqda Olchasoy (shimolda) bilan Qayroqsoy (janubda) vodiylari oralig'ida 23 km uzunlikda yo'nalgan bo'lib, shimoli-sharqda Xo'ja Gurgurota tog'iga (eng baland joyi 3109 m) tutashadi. Ketmonchopti tog'larining janubida janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalgan Suvsiztog' tizmasi (eng baland joyi 2127 m) joylashgan, uni Boysun tizmasidan Sherobod daryosi ajratib turadi. Tizma janubi-g'arbda Ko'hitang tizmasining shimoliy etaklariga qadar cho'zilgan.

Boysuntog'ning janubida Ko'hitang tizmasi Sherobod daryosi vodiysidan Amudaryo vodiysigacha qariyb 100 km ga cho'zilgan. Eng baland joyi Ayribobo cho'qqisi – 3139 m. Ko'hitang cho'kindi jinslardan, jumladan ohaktosh va gipsli jislardan tarkib topgan bo'lib, karst hodisasi rivojlangan. Tog' etaklarida efemer o'simlikli chala cho'l, yuqoriroqda tog' subtropik dashtlari (kserofit butalar, pista) va siyrak archazorlar bor. Ko'hitang tizmasining sharqida Pashxurd botig'i joylashgan bo'lib u Ko'hitang tizmasini Sherobod-Sariqamish va Kelif-Sherobod qator tepalaridan ajratib turadi.

Boysun va Ko'hitang tog'larining sharqiy, Surxondaryo botig'ining janubi-g'arbiy qismida Sherobod-Sariqamish qirlari joylashgan. U janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa 70 km ga cho'zilgan. Shimoldan Boysun botig'i, janubi-sharqdan Surxondaryo vodiysi bilan chegaralangan. O'rtacha balandligi 800-1000 m, eng baland joyi 1216 m. Sherobod-Sariqamish qirlari Boysun tog'laridan boshlanuvchi bir qancha daryolar (Kafrun, Anjarasoy, Pulihakim va boshqalar) bilan chuqur kesilgan va alohida qirlarga (Kag'ni (955 m); Takasakradi (Takasirt, 1050 m) va boshqalar) ajralgan. Yonbag'irlarida quruq soy va jarliklar ham ko'p uchraydi.

Sherobod-Sariqamish qirlari Yetimkalos, Agatchag'il, Kengota kabi bir nechta tizmalardan iborat. Shulardan biri Yetimkalos bo'lib, uning eng baland joyi 1216 m, uzunligi 8-10 km, janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalgan. Shimoli-g'arbiy yonbag'ri ancha tik, janubi-sharqiy yonbag'ri yotiqroq, quruq soy va tor daralar bilan kuchli o'yilgan. Janubi-sharqiy yonbag'irlari ancha tikroq va kambar, yuqori paleogenning ohaktoshlaridan tuzilgan. Agatchag'il tog'i Oqqapchig'ay darasidan Ulaynor dovonigacha (22 km ga) cho'zilgan, balandligi 1280-1300 m [178; 106-b.]. Agatchag'il tog'ining janubi-sharqiy yonbag'ri tik va shimoli-g'arbiy yonbag'ri esa qiyaroq. Agatchag'il tog'i zamini bo'r davrining gil, qumtosh, alevrolit, gips va ohaktoshlaridan, suvayirg'ich qismi qattiq ohaktoshlardan tuzilgan. Ohaktosh qatlamining ba'zi joylari suvda erib, kichik g'orlar hosil qilgan, tog' etaklarida quruq soylar ko'p. Kengota tizmasi janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon yo'nalgan, eng baland nuqtasi 640 m (Qoraqat tog'i), uzunligi Qag'ni darasidan to Kofrunsoygacha 24 km. Shimoli-g'arbda Takasakradi (Takasirt, 1068 m) tizmasi bilan vodiysimon pastqamlik orqali ajralib turadi. Janubi-sharqda tog'oldi o'ydim-chuqur qiya tekislik bilan Qiziriq cho'liga tutashadi. Janubi-g'arbda Qag'ni darasi orqali Qag'ni tizmasi bilan chegaralangan. Shimoli-sharqda Kofrunsoy darasi orqali Yetimkalos tizmasining tog' etaklari bilan tutashadi. Sherobod-Sariqamish qator tepa (gryada)lari tarkibidagi tog'lardan biri Beshqiz deb ataladi. U janubi-g'arbda Sherobod daryo vodiysi va shimoli-sharqda Ko'ksoy vodiysi oralig'ida joylashgan. Uzunligi 12 km, eng baland joyi 956 m, chekkalarida 550-600 m gacha pasayadi [5; 7-b.].

Sherobod-Sariqamish qator tepa (gryada)larining janubi-g'arbida Kelif-Sherobod qator tepalari shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha yo'nalgan. U ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi

Kelif deb nomlanadi. U Amudaryodan boshlanib O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalari chegarasigacha davom etadi. Ikkinchi qismi Sherobod deb nomlanib, O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalari chegarasidan Sherobod daryosigacha cho‘zilgan. Sherobod qismi nisbatan ensizroq (8-10 km) bo‘lib, uzunligi 50 km ga teng. Ushbu qator tepaliklar ikki qator bo‘lib, shimoli-g‘arbiy qismi Oqtov (985 m), Qorachag‘il (1116 m), janubi-sharqiy qismi esa Oqtov (850 m), Daralitog‘ (860 m) va Xo‘jaobjo‘sh (1134 m) tizmalaridan iborat. Kelif-Sherobod qator tepalari kuchli parchalangan. Janubi-sharqiy yonbag‘irlari nisbatan yotiqroq va qiya tekislikka aylanib asta-sekin Sherobod cho‘liga tutashadi. Shimoli-g‘arbda esa Pashxurt botig‘i va Ko‘hitang tizmasining tog‘oldi qirlari va past tog‘lari bilan tutashadi. Kelif-Sherobod qator tepalarining suvayirg‘ichlari paleogenning nurashga chidamli qumtoshlaridan tuzilgan, yonbag‘irlari esa paleogen va neogen davrlari (qumtosh, ohaktosh) jinslaridan tashkil topgan. Qator tepalar uchun kuestasimon relyef shakli xos, doimiy oqar daryolar yo‘q.

Janubi-g‘arbiy Hisorda sel hodisalari, suv eroziyasi jarayonlari juda faol bo‘lib, yemirilgan va parchalangan tog‘ jinslari suv oqimining gidrodinamik harakati natijasida oqizib kelingan. Daryo va soylarning adirlardan chiqish joyida oqim tezligi kamayib, oqiziqqlarni tashkil etgan jinslar to‘plangan. Bunday gidrodinamik va gidromorfologik jarayonlar bir nechta konussimon yoyilmalarni vujudga keltirgan. Oqizib kelingan tog‘ jinslari oqim tezligiga va jinslarning katta-kichikligiga qarab saralanib o‘ziga xos litologik va geomorfologik tuzilmani barpo etgan.

Sangardak, To‘palang, Xo‘jaipok, G‘uzordaryo kabi daryo va yirik soylar uzoq davrlar mobaynida davom etgan akkumulyativ jarayonlar natijasida nurash mahsuli bo‘lgan tog‘ jinslaridan katta qalinlikdagi konussimon yoyilmalarni hosil qilgan.

Janubi-g‘arbiy Hisorning tog‘oldi qismlaridagi konussimon yoyilmalari litologik-geomorfologik tuzilishi jihatidan uch: yuqori, o‘rta va quyi qismlardan iborat. Yoyilmalarning yuqori qismi relyefi qiya, yirik dag‘al jinslardan tashkil topgan va grunt suvlarining yotiq oqimi ta‘minlangan. Shu boisdan bu hudud tuproqlarida eroziya jarayonlari rivojlanishi mumkin. Yoyilmalarning o‘rta qismidagi tog‘ jinslari tarkibida yiriklari kamayib, lyossimon jinslar nisbati ortadi, relyef qiyaligi pasayadi, grunt suvlarining yotiq harakati kamayib, tik (vertikal) harakati ustunlik qila boshlaydi va ularning sathi yer yuzasiga yaqinlashib boradi. Konussimon yoyilmalar quyi qismining litologik tarkibida lyossimon va gil yotqiziqqlari hukmron, dag‘al jinslar uchramaydi, grunt suvlarining tik harakati kuchayadi, yotiq harakati juda sekin sodir bo‘ladi. Tuproq sho‘rlanishi ustuvor xarakterga ega bo‘ladi.

**Xulosa.** Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi hududlarining orografik tuzilishi hamda geomorfologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida hudud relyefi murakkab tektonik rivojlanish tarixi, geologik tuzilishi va zamonaviy ekzogen jarayonlar ta‘sirida shakllangan. Janubi-g‘arbiy Hisor hududida balandligi 4000 m dan ortiq bo‘lgan baland tog‘ massivlari, o‘rtacha va past

tog‘lar, tog‘oldi adirlari hamda tekisliklar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona orografik tizimni hosil qiladi. Hududning geomorfologik tuzilishida tektonik-denudatsion, erozion-denudatsion, karst va akkumulyativ relyef shakllari keng tarqalgan bo‘lib, ularning rivojlanishida litologik tarkib va neotektonik harakatlar muhim omil hisoblanadi.

Ko‘hitang, Boysuntog‘, Chaqchar, Xontaxti, Beshnov, Qorasirt va boshqa tog‘ tizmalari hududning asosiy morfostruktur birliklarini tashkil etadi. Hududda ohaktosh va gipsli jinslarning keng tarqalganligi karst jarayonlarining rivojlanishiga, daryo vodiylarining chuqur kesilganligi esa eroziya va denudatsiya jarayonlarining yuqori faolligiga sabab bo‘lgan.

Hududda sel oqimlari, suv eroziyasi va akkumulyativ jarayonlar natijasida shakllangan konussimon yoyilmalar tog‘oldi landshaftlarining asosiy geomorfologik elementlaridan biri hisoblanib, ularning litologik va geomorfologik tuzilishidagi farqlar tuproq hosil bo‘lishi, grunt suvlari rejimi hamda xo‘jalik faoliyati uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi hududlarining orografik tuzilishi hamda geomorfologik xususiyatlari hudud landshaftlarining shakllanishi, tabiiy resurslarning hududiy taqsimlanishi va geografik jarayonlarning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Allayorov R.X. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlaridan foydalanish va geoekologik vaziyatni optimallashtirish. G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss. avt. – Samarqand, 2023. – 50 b.
2. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 264 b.
3. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 440 b.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. A – Beshbaliq. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» DIN, 2000. – 736 b.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Beshik – Gidrofizika. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» DIN, 2001. – 701 b.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. Gidrofiliya – Zebralar. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» DIN, 2002. – 704 b.
7. Usmonova R., Murodova D. Tog‘ oraliq botiqlarining landshaft xususiyatlari // O‘zbekiston Geografiya jamiyati X syezdi materiallari. – T., 2019. – B. 160 – 163.